



## TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI QARORI

2023 - yil 4 - avgust

222-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

### **Mablag' ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 73-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-avgustdagi Farmoni va Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar masalalari bo'yicha Yangihayot tuman hokimi o'rinbosarining 2023-yil 3-avgustdagi bildirgisini inobatga olib,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Yangihayot tumani mahalliy budjetining zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobidan tuman Madaniyat bo'limiga Milliy gvardiya kunini munosib nishonlash uchun bayram tadbiri xarajatlariga 15 000,0 ming so'm mablag' ajratilsin.
2. Yangihayot tumani Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Maxmudov), tuman Madaniyat bo'limining xarajatlar smetasiga tegishli o'zgartirishlar kiritsin.
3. Yangihayot tumani Madaniyat bo'limi (U.Abdurasulov), ajratilgan mablag'larni o'rnatilgan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlasin.
4. Yangihayot tumani G'aznachilik xizmati bo'limi (A.Odilov), ajratilgan mablag'larni o'rnatilgan tartibda moliyalashtirish choralari ko'rsin.
5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari O.Fozilov zimmasiga yuklatilsin.

**Yangihayot tumani hokimi**



**X.Inogamov**